Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические аспекты укрепления макроэкономической стабильности в условиях «зелёной экономики». Рассмотрены сущность понятий «зелёная экономика» и «макроэкономическая стабильность», их научное и практическое значение, а также место в глобальной экономической системе. В международной практике проанализированы зелёные экономические политики Европейского Союза, Южной Кореи и Китая, дана оценка их влияния на макроэкономическую стабильность. В рамках опыта Узбекистана изучены Концепция «Зелёная экономика», проекты в сфере возобновляемой энергетики и механизмы зелёных финансов. В завершение исследования предложены научно-практические рекомендации, направленные на усиление стратегического значения зелёной экономики в обеспечении экономического роста и стабильности страны.

Ключевые слова: зелёная экономика, макроэкономическая стабильность, международный опыт, практика Узбекистана, фискальная устойчивость, зелёные финансы, возобновляемая энергия, экономический рост.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi jahon hamjamiyatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlarida ta’kidlanganidek, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim vositasidir.¹ Rivojlangan

1 BMT (UNEP). “Green Economy Report”, 2023. <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy>

mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil investitsiyalarni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va yashil moliya instrumentlarini joriy etish fiskal barqarorlikni mustahkamlash hamda tashqi qarz xavflarini kamaytirishda muhim o‘rin tutadi.² O‘zbekiston ham mazkur jarayondan chetda qolmay, so‘nggi yillarda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini jadallashtirishga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirmoqda.³ Shu bois yashil iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, balki iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish, budjet tizimini mustahkamlash va investitsion muhitni yaxshilash bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil moliya vositalarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan choralar makroiqtisodiy muvozanatning kafolatli ta‘minlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tajribasida esa ushbu yo‘nalishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni kengaytirish, yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirishga doir tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotning tashqi zarbalarga nisbatan barqarorligini kuchaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratadi.

Mazkur holat yashil iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash masalasini chuqur ilmiy tahlil qilish, xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan solishtirish va zamonaviy takliflarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu maqola ana shu dolzarb masalalarning nazariy va amaliy qirralarini yoritishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYATLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri sifatida olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta‘minlashga, balki iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy adolatni oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlik — milliy iqtisodiyotning umumiy o‘sish sur‘atlarini barqaror saqlash, inflyatsiya va ishsizlikni nazorat qilish, moliya va budjet siyosatida muvozanatni ta‘minlash orqali iqtisodiy tizimning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydigan asosiy tamoyil sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Atrof-muhit” dasturi (UNEP) ta‘rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot — tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va ijtimoiy adolatni oshirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. Ushbu iqtisodiy modelda o‘sish, daromad va ish o‘rinlari yaratish davlat va xususiy sektorlarning kam uglerodli, resurslarni tejovchi va ijtimoiy jihatdan inklyuziv faoliyatlarga, infratuzilma va aktivlarga investitsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon karbon chiqindilarini kamaytirish, ifloslanishni oldini olish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarini saqlashga qaratilgan bo‘ladi.⁴

Yashil iqtisodiyot va makroiqtisodiy barqarorlik tushunchalari bir-biridan farqli, lekin o‘zaro bog‘liq zamonaviy iqtisodiy tushunchalardir. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi. Makroiqtisodiy barqarorlik esa milliy iqtisodiyotning umumiy o‘sish sur‘atlarini barqaror saqlash, inflyatsiya va ishsizlikni nazorat qilish hamda moliya va budjet siyosatida muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan tushunchadir.

I.Tiutiunyk o‘z tadqiqotlarida makroiqtisodiy jarayonlarni faqat umumiy tendensiyalar asosida baholash yetarli emasligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, optimal rivojlanish yo‘nalishlarini e‘tiborga olmaslik va makroiqtisodiy nomutanosiblik indeksini to‘liq sharhlamaslik tahlil natijalarining aniqligini pasaytiradi. Shu sababli ular makroiqtisodiy barqarorlikni baholash metodologiyasiga innovatsion ko‘rsatkichlarni kiritish zarurligini asoslaydilar.⁵

Boshqa bir tadqiqotda V. Levchenko, A. Boyko, va boshqa hamkorlari esa makroiqtisodiy barqarorlikni baholashda mamlakatlar kesimidagi o‘ziga xosliklarni ochib berishgan. Ular xalqaro statistik bazalar asosida

2 Global Green Growth Institute (GGGI). “Green Growth Index 2022” <https://greengrowthindex.gggi.org/wp-content/uploads/2023/02/2022-Green-Growth-Index-1>.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”. PQ-4477-son Qarori// Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son; <https://lex.uz/docs/-4539502>

4 <https://www.unep.org/resources/green-economy>

5 Tiutiunyk, I., Zolkover, A., Maslov, V., Vynnychenko, N., Samedova, M., Beshley, Y., & Kovalenko, O. (2020). Indices of innovation activity as components of macroeconomic stability assessment: how does the shadowing of investment flows affect?. Marketing and Management of Innovations, 4, 26-40. <http://doi.org/10.21272/mmi.2020.4-02>

ishlab chiqilgan metodologiyani qo‘llab, makroiqtisodiy nomutanosiblik ko‘rsatkichlarini solishtirish imkonini beruvchi amaliy yondashuvni taklif etganlar.⁶

Moliyaviy omillarni makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida baholash zarurligi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng ta’kidlanmoqda. Xususan, V. Tkachenko A. Kwilinski, O. Korystin va ularning hamkorlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda axborot texnologiyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini tahlil qilib, bank tizimi barqarorligi va davlat qarzi kabi indikatorlarni umumiy iqtisodiy muvozanatni belgilovchi muhim omillar sifatida ko‘rsatadilar.⁷

N. Shpak, I. Kulyniak, M. Gvozdz va ularning hamkorlari moliyaviy hamda iqtisodiy xavfsizlik masalalarini soya iqtisodiyoti bilan bog‘liq omillar asosida tahlil qilib, ularni davlat moliyasi va sanoat barqarorligi bilan chambarchas aloqador ekanini ilmiy jihatdan asoslaydilar. Tadqiqotchilarning yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar makroiqtisodiy barqarorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.⁸

Shuningdek, N. N. Iqbal va S. Nawazning (2010) ta’kidlashicha, ularning nazariy yondashuviga ko‘ra, fiskal markazlashuvni kamaytirish va daromadlarni hududiy darajada taqsimlash makroiqtisodiy barqarorlikni oshiradi, chunki bu jarayon inflyatsiya hamda ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.⁹

Shu tariqa, tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar makroiqtisodiy barqarorlikni baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar, fiskal desentralizatsiya va ekologik omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq, ushbu yondashuvlarda mamlakatlar kesimidagi o‘ziga xos xususiyatlar va ularning davlat boshqaruvi tizimi bilan bog‘liq jihatlar yetarlicha chuqur yoritilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotda ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini yashil iqtisodiyot va makroiqtisodiy barqarorlik tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli tahlil qilish tashkil etadi. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” hamda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) va boshqa xalqaro tashkilotlarning normativ-huquqiy hujjatlari va statistik ma’lumotlari tadqiqotning huquqiy hamda nazariy asosini tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institutsional tahlil, kontent-tahlil, funksional tahlil, qiyosiy tahlil, trend tahlili, indeks yondashuvi, empirik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundan iboratki, yashil iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning nazariy asoslari tizimli tahlil qilindi. Unda ekologik omillar, fiskal barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi yangi konseptual yondashuv ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa shundan iboratki, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyot siyosatini makroiqtisodiy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu natijalar iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya va yashil moliya loyihalarini joriy etishda qo‘llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda nafaqat ekologik barqarorlikni, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy muvozanatni saqlash “yashil” transformatsiya mexanizmlari bilan chambarchas bog‘langan.¹⁰

Jumladan, Buyuk Britaniya o‘zining Net Zero Strategy: Build Back Greener hujjatida 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishish strategiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, bunda energetika, transport va sanoat sektorlarini dekarbonizatsiya qilish, xususiy sarmoyalarni kengaytirish va “yashil” moliya mexanizmlarini rivojlantirish asosiy

6 Levchenko, V., Boyko, A., Savchenko, T., Bozhenko, V., Humenna, Yu. & Pilin, R. (2019). State Regulation of the Economic Security by Applying the Innovative Approach to its Assessment. Marketing and Management of Innovations, 4, 364-372. <http://doi.org/10.21272/mmi.2019.4-28>

7 Tkachenko, V., Kwilinski, A., Korystin, O., Svyrydiuk, N., & Tkachenko, I. (2019). Assessment of information technologies influence on the financial security of economy. Journal of Security and Sustainability Issues, 8(3), 375-385. doi:10.9770/jssi.2019.8.3(7)

8 Shpak, N., Kulyniak, I., Gvozdz, M., Pyrog, O., & Sroka, W. (2021a). Shadow economy and its impact on the public administration: Aspects of financial and economic security of the country's industry. Administratie Si Management Public, 2021(36), 81-101. doi:10.24818/AMP/2021.36-05

9 Iqbal, N., & Nawaz, S. (2010). Fiscal decentralization and macroeconomic stability: Theory and evidence from Pakistan. MPRA Paper No. 27184. University Library of Munich, Germany, 2010. 29 p. https://mpa.ub.uni-muenchen.de/27184/1/MPRA_paper_27184.pdf

10 UK: Net Zero Strategy: Build Back Greener (Department for Energy Security and Net Zero / BEIS), UK: Mobilising green investment: 2023 Green Finance Strategy (HM Government), <https://assets.publishing.service.gov.uk/media/6194dfa4d3bf7f0555071b1b/net-zero-strategy-beis.pdf>

omillar sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda “yashil” investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali o‘z ifodasini topadi.¹¹

Germaniya Bundesbank tomonidan tayyorlangan Financial Stability Review 2023 hisobotida iqlim o‘zgarishi va energetika bozoridagi tebranishlarning moliyaviy tizimga ta’siri batafsil yoritilgan. Xususan, kredit risklari, sug‘urta bozoridagi xavf omillari va davlat qarzi barqarorligiga e’tibor qaratilgan. Shu orqali Germaniya yashil transformatsiya jarayonida moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashni asosiy vazifa qilib qo‘ygan.¹²

Yaponiya Green Growth Strategy through Achieving Carbon Neutrality va Green Innovation Fund dasturlari orqali iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamlor texnologiyalarni keng joriy etish choralari ko‘rmoqda. Fikrimizcha, bu nafaqat iqlim o‘zgarishiga moslashuvchanlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni kafolatlaydi.¹³

Shvetsiya bo‘yicha tayyorlangan IMF Article IV Consultation va OECD Economic Survey hujjatlarida mamlakat fiskal barqarorlik, inflyatsiyani nazorat qilish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va yashil investitsiyalarni uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlayotgani ta’kidlangan. Tushunchamiz asosida shuni aytishimiz mumkinki, bu jarayon “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy samaradorligini ham tasdiqlaydi.¹⁴

Shunday qilib, ilg‘or davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari iqtisodiy barqarorlik va barqaror o‘sishni ta’minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ularning umumiy jihati shundan iboratki, “yashil” transformatsiya siyosati doirasida nafaqat ekologik xavfsizlik, balki moliyaviy barqarorlik, sarmoya muhitini yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirish kabi omillar ham hisobga olinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-sonli qarori¹⁵ qabul qilindi. Ushbu qarorda keltirilishicha, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda aholi turmush sifatini yaxshilash kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek mazkur qarorda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosiy vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan:

Birinchidan, iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini joriy etish.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, shu jumladan, quyosh va shamol energetikasi sohalarini rivojlantirish.

Uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik muammolarni yumshatish va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Beshinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimi orqali malakali kadrlar tayyorlash va “yashil” texnologiyalarni joriy etishda innovatsion yondashuvlarni kengaytirish.

Oldinchidan, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

Yettinchidan, O‘zbekistonning xalqaro ekologik tashabbuslari, xususan Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarini amalga oshirishni ta’minlash shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish masalasi bosqichma-bosqich tizimli yondashuv asosida shakllanib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan vazifalarning izchil ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 514-son qarori¹⁶ bilan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etishga oid aniq mexanizmlar belgilandi. Xususan, davlat boshqaruvi organlari va yirik xo‘jalik birlashmalarida rahbar o‘rinbosarlaridan biriga “yashil” iqtisodiyot masalalarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi, maxsus bo‘linmalar

11

12 Germany: Deutsche Bundesbank — Sustainable Finance / Financial Stability Review (2023), <https://www.bundesbank.de/resource/blob/918848/fde3aeb449b4d92c2d2d9ed61d85896/472B63F073F071307366337C94F8C870/2023-finanzstabilitaetsbericht-data.pdf>

13 Green Growth Strategy & Green Innovation Fund Green Growth Strategy through Achieving Carbon Neutrality (METI), https://www.meti.go.jp/english/policy/energy_environment/global_warming/ggs2050/index.html

14 Sweden: 2025 Article IV & OECD Survey, https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/oecd-economic-surveys-sweden-2025_70cad22e/75e94b2f-en.pdf

15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son//<https://lex.uz/en/docs/-4539502?ONDATE=03.12.2022%2000>

16 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 sentyabrdagi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 514-son qarori; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2023-y., 09/23/514/0735-son//<https://lex.uz/docs/-6622631>

tashkil etilishi nazarda tutildi. Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarining resurslardan samarali foydalanishi, iqlim o‘zgarishiga moslashuvchanligi, qayta tiklanuvchi energiya va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishi, shuningdek, ilmiy tashkilotlar bilan integratsiya asosida “yashil” innovatsiyalarni rivojlantirishi bo‘yicha majburiyatlar belgilandi. Natijada, mamlakatda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosati faqat kontseptual darajada emas, balki amaliy boshqaruv mexanizmlari orqali ham ta‘minlanmoqda.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2022-2024 yillar)¹⁷

Ko‘rsatkich	2022 yil	2023 yil	2024 yil
YalM real o‘sishi(%)	5,7	6,0	6,2
Aholi jon boshiga YalM (USD)	2255	2650	2850
Inflyatsiya	11,0	9,0	8,5
Tashqi qarz(mlrd.USD)	26,3	29,0	30,5
Joriy hisob balansi(YalMga nisbatan,%)	-6,0	-6,5	-5,5
Ishsizlik darajasi (%)	9,0	8,8	89,5
Yashil obligatsiyalar hajmi	-	4,25	5,0

Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki 2022–2024 yillarda O‘zbekistonning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. YalMning 5,7–6,2 foiz oraliq‘ida o‘sishi mamlakat iqtisodiyotining tashqi ta‘silarga nisbatan nisbatan chidamliligini ko‘rsatadi. Inflyatsiyaning ikki baravardan ortiq darajada pasayishi hukumat olib borgan monetar siyosat va narxlarni liberallashtirish jarayonlarining samarasini bildiradi. Shu bilan birga, ishsizlikning bosqichma-bosqich kamayishi iqtisodiy o‘shishning ijtimoiy samaradorligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyot kontekstida esa 2022–2024 yillar oraliq‘ida investitsiyalarning izchil oshib borishi — mamlakatning energiya xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan ustuvor siyosatidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajribada yashil transformatsiya nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy o‘shish, moliyaviy barqarorlik va ish o‘rinlarini yaratishda samarali ekanligi tasdiqlangan. O‘zbekiston amaliyotida YalM o‘sishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasining ijobiy tendensiyalari, shuningdek, yashil investitsiyalarning ortishi mamlakatning ekologik va makroiqtisodiy barqarorlikka intilishining samarali natijasini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, yashil iqtisodiyot monitoringi va indikatorlar tizimi yaratish – Vazirlar Mahkamasi va tegishli vazirliklar rahbarligida mamlakat bo‘yicha yashil iqtisodiyotning samaradorligini baholash uchun yagona indikatorlar tizimi joriy etilishi zarur. Bu tizim orqali energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil investitsiyalarni nazorat qilish amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, yashil moliya va investitsiyalarni rivojlantirish – Yashil obligatsiyalar bozorini kengaytirish, grant va subsidiyalar orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, investorlar uchun soliq imtiyozlari va kredit kafolatlari joriy etilishi muhim.

Uchinchidan, energiya samaradorligi va ekologik texnologiyalarni joriy etish – Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng tatbiq etish, shu jumladan quyosh, shamol va biogaz loyihalarini amalga oshirish zarur.

To‘rtinchidan, davlat-xususiy sherikchilikni kuchaytirish – Innovatsion startaplar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida integratsiyalashgan mexanizmlar, masalan, PPP (Public-Private Partnership) platformalari yaratish kerak. Bu mexanizm orqali loyiha risklari kamaytiriladi va samaradorlik oshiriladi.

Beshinchidan, ilmiy-tadqiqot va ta‘limni rivojlantirish – Ekologik va texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va universitetlar bilan sanoat integratsiyasini ta‘minlash zarur. Shu orqali yashil iqtisodiyot loyihalarining uzoq muddatli barqarorligi kafolatlanadi.

17 IMF (2023); World Bank (2023); Central Bank of Uzbekistan (2023); Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan (2023); ILO (2023); State Statistics Agency (2023); Reuters (2023).

Oltinchidan, qonunchilik va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash – Yashil iqtisodiyot siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ekologik me‘yorlar va moliyaviy rag‘batlar tizimini tartibga solish shart. Bu investitsion muhitni yanada barqarorlashtiradi.

Yettinchidan, xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarish – Parij bitimi va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq strategiyalarni amalga oshirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va tajriba almashish zarur. Shu orqali mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi global standartlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. BMT (UNEP). “Green Economy Report”, 2023. <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy>
2. Global Green Growth Institute (GGGI). “Green Growth Index 2022” <https://greengrowthindex.gggi.org/wp-content/uploads/2023/02/2022-Green-Growth-Index-1>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”. PQ-4477-son Qarori// Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son; <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. <https://www.unep.org/resources/green-economy>
5. Tiutiunyk, I., Zolkover, A., Maslov, V., Vynnychenko, N., Samedova, M., Beshley, Y., & Kovalenko, O. (2020). Indices of innovation activity as components of macroeconomic stability assessment: how does the shadowing of investment flows affect?. Marketing and Management of Innovations, 4, 26-40. <http://doi.org/10.21272/mmi.2020.4-02>
6. Levchenko, V., Boyko, A., Savchenko, T., Bozhenko, V., Humenna, Yu. & Pilin, R. (2019). State Regulation of the Economic Security by Applying the Innovative Approach to its Assessment. Marketing and Management of Innovations, 4, 364-372. <http://doi.org/10.21272/mmi.2019.4-28>
7. Tkachenko, V., Kwilinski, A., Korystin, O., Svyrydiuk, N., & Tkachenko, I. (2019). Assessment of information technologies influence on the financial security of economy. Journal of Security and Sustainability Issues, 8(3), 375-385. doi:10.9770/jssi.2019.8.3(7)
8. Shpak, N., Kulyniak, I., Gvoz, M., Pyrog, O., & Sroka, W. (2021a). Shadow economy and its impact on the public administration: Aspects of financial and economic security of the country's industry. Administratie Si Management Public, 2021(36), 81-101. doi:10.24818/AMP/2021.36-05
9. Iqbal, N., & Nawaz, S. (2010). Fiscal decentralization and macroeconomic stability: Theory and evidence from Pakistan. MPRA Paper No. 27184. University Library of Munich, Germany, 2010. 29 p. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/27184/1/MPRA_paper_27184.pdf
10. UK: Net Zero Strategy: Build Back Greener (Department for Energy Security and Net Zero / BEIS), UK: Mobilising green investment: 2023 Green Finance Strategy (HM Government), <https://assets.publishing.service.gov.uk/media/6194dfa4d3bf7f0555071b1b/net-zero-strategy-beis.pdf>
11. Germany: Deutsche Bundesbank — Sustainable Finance / Financial Stability Review (2023), <https://www.bundesbank.de/resource/blob/918848/fde3aeb449b4d92c2d2d9ed61d85896/472B63F073F071307366337C94F8C870/2023-finanzstabilitaetsbericht-data.pdf>
12. Green Growth Strategy & Green Innovation Fund Green Growth Strategy through Achieving Carbon Neutrality (METI), https://www.meti.go.jp/english/policy/energy_environment/global_warming/ggs2050/index.html
13. Sweden: 2025 Article IV & OECD Survey, https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/oecd-economic-surveys-sweden-2025_70cad22e/75e94b2f-en.pdf
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019—2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son//<https://lex.uz/en/docs/-4539502?ONDATE=03.12.2022%2000>
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 sentyabrdagi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 514-son qarori; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.09.2023-y., 09/23/514/0735-son//<https://lex.uz/docs/-6622631>
16. IMF (2023); World Bank (2023); Central Bank of Uzbekistan (2023); Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan (2023); ILO (2023); State Statistics Agency (2023); Reuters (2023).



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI